



BADIIY ASARLARDAGI DIALEKTIZMLARNING TAHLILI

Shermo'minova Jasmina

*Termiz davlat universiteti o'zbek
filologiyasi fakulteti talabasi
jshermominova@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu tezisda Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" va Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarlarida uchrovchi dialektik birliklarning tahlili beriladi hamda kimlar tomonidan dialektologiyada ushbu asarlar o'rganilgani haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, Abdulla Qodiriy va Tog'ay Murod o'z asarlarida qahramonlarning psixologiyasi va xarakter xususiyatlarini to'laqonli ochib berishda qanday shevaga oid so'zlardan foydalanganligi, bundan tashqari, asarlarida xalq shevalaridan nima maqsadda foydalanishlari va "Biz nega ushbu asarlarni tadqiq etishimiz kerak?" degan savollarga javob beriladi.*

Kalit so'zlar: *asar, dialekt, sheva, adabiy til, mahalliy kolorit, dialektizm, psixologiya, xarakter.*

Abstract: *This thesis provides an analysis of the dialectical units in the works of Abdulla Qodiriy "Mehrabadan shayon" and Togay Murod "Otamdan khalq dalar" and provides information about who studied these works in dialectology. It also provides information about what dialect words Abdulla Qodiriy and Togay Murod used in their works to fully reveal the psychology and character traits of the characters, in addition, for what purpose they use folk dialects in their works and answers to the questions "Why should we study these works?".*

Keywords: *work, dialect, dialect, literary language, local color, dialectism, psychology, character.*

Аннотация: *В данной диссертации дается анализ диалектных единиц, встречающихся в произведениях Абдуллы Кодури «Мехрабдан шайон» и Тогая Мурода «Отамдан ккал далар», а также приводится информация о том, кто изучал эти произведения в диалектологии. В статье также рассматривается, какие диалектные слова использовали в своих произведениях Абдулла Кадыри и Тогай Мурад для полного раскрытия психологии и черт характера героев, а также с какой целью они использовали народные диалекты в своих произведениях и «Зачем нам изучать эти произведения?». На вопросы даны ответы.*

Ключевые слова: *произведение, диалект, говор, литературный язык, местный колорит, диалектизм, психология, характер.*

Tog'ay Murod asarlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni Ibrohim Safarov tomonidan olib borilgan. O'zbek tili o'zining sheva qatlami va boyligi bilan boshqa shevalardan ajralib turadi. Bir-biriga o'xshamaydigan rang-barang leksik birliklar to'vusning



patlari qanchalik zeb bersa, o'zbek tiliga ham shunchalik zeb berib turadi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu shevalardan o'z asarlarida mohirlik bilan foydalangan deya, shubhasiz, Tog'ay Murod va Abdulla Qodiriy deyishimiz mumkin. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asarini oladigan bo'lsak, o'sha davrda Toshkent shevalarida uchrovchi juda qimmatli dialektal birliklarni keldirib o'tgan.

Abdulla Qodiriy o'z asarlarida qahramonlarning xarakterli xususiyatlarini to'laqonli ochish maqsadida "erlik" so'zlar sheva xususiyatlarini personajlarning o'z tili bilan gapirtiradi: -Mamatqul-chi, domla pochchalarning so'ziga yaxshi quloq solib tig'nab olgan kishi, bemalol jannatga kirib ketavuradi-da.... Sen ham ularning so'zini tig'nab olasanmi? Yozuvchining mahorati shundaki, yirik asarlarida asosiy qahramonlar – Otabek, Kumushbibi, Anvar, Ra'no turli joylardan bo'lib, ikki shevaning vakillaridir. Bulardan tashqari saroy xizmatkorlari, saroy atrofidagi kishilar ham turli shevaga mansub kishilardir. Asarni o'qigan kitobxon o'zini shaharma-shahar, qishloqmaqishloq kezib qahramonlar orasida o'zini his etadi: -Sen bilan men bo'lsak, qattiq nonni ham eya beramiz; jazzasi(chorasi demoqchi) choyga bo'ktirishda. ("Mehrobdan chayon". 78-bet) –Dehqon Mahdumning hurmatiga o'rnidan turib, qo'l qovushtiradi: - O'n uch tanob erimiz bor edi, taqsir. Chamasi yong'ish bo'g'onda (yanglish, xato bo'lgan demoqchi), o'ttiz uch tanobga haq sog'onlar(solganlar). Men shunga arza (ariza demoqchi) yozdirayma, ...deb(-mi affiksi ko'p o'rinlarda –ma shaklida qo'llangan va bu bilan o'sha davr xalq jonli tilini ifodalagan). ("Mehrobdan chayon". 128-bet).

Asarlarida uy-ro'zg'or dialektlaridan ham mohirlik bilan foydalangan, xususan: Mehmonxona dahlizida qo'lida choydush (choyduvush-choy qaynatishga mo'ljallangan uy-ro'zg'or buyumi) ko'targan Ra'no ko'rindi...(221 –bet) Anvar o'rnidan turib dahlizga chiqdi, qo'lida obdasta, dastsho'(ro'zg'or buyumi, yuz-qo'lni yuvishda ishlatiladigan uy-ro'zg'or buyumi) ko'tarib Ra'noni yonig'a keldi.(222-bet) Anvar qoziqdan sochiq keltirib berdi(222-bet). Ra'no ko'zini tizzasiga tikib, qo'li bilan sholcha (eshikning kirish qismiga to'shaladigan gilamdan kichik narsa) ipini chirmab o'ltirar edi(223-bet) Chunki xotin Ra'noni ko'rib qolgan, shuning uchun bo'g'oz xotin bilan chiqib ko'rishishi Ra'noga lozim bo'lg'an edi(228-bet). To'rdagi toqchadan (tokcha-narsalarni qo'yishga mo'ljallangan, yog'ochdan qilingan shkafning bir ko'rinishi) ustiga ko'k sir berilgan bir davotni olib qaradi(227-bet). Chamasi ular oshiq-ma'shuq, baloxo'r xon loaqal shunga cho'vagini tiqmasa nima qilar edi(230-bet). Tunqotar emish yonig'a keldi.-Siz shundamisiz, yanga?(Siz shu erdamisiz kelinoyi demoqchi). Bo'g'an gap shu aylanay! Safar tanchadagi (sandal-qadimgi uylarda bo'ladigan, ichiga cho'g' solib qo'yadigan, prch vazifasini o'taydigan narsa) yuzini yashirg'ichig'a qaramasliqqa tirishib daromadi ayvondan bo'lg'an hujra eshigiga chiqdi(265-bet). Ayvonning to'r toqchasida qora charog' sasib yonadir(255-bet). Sandal ustig'a qora charog' qo'yib, oldig'a kitob yozg'an Anvar Safabo'zchining istiqbolig'a qo'zg'alldi(256-bet). –Jazzasi choponni olib tashlashda, mirzam,- dedi Safar choponini eshib(257-bet). Qoziqda osilg'an choponini keltirib, Safarning yaktakchan elkasiga yopti(257-bet).- Toza yaxtak kiymagan edim, buningiz





menga uvol-da, uka,- deb siqilinqiradi(257-bet) Siz shu yigitni bu yerga olib kelasiz, o'zi manim og'am bo'ladir, xo'bmi?(262-bet).

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarida Surxondaryo shevasiga oid birliklardan ustalik bilan foydalangan. Qarg'ishlar va varvarizm, vulgarizmlardan eng ko'p foydalanga ijodkor desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, onasi va o'qituvchisining tilidan aytilgan quyidagi birliklar: "Onamiz ketimdan tosh otib qoladi. – Ha, oshingni yeyin sen tentakni, oshginangni yeyin![1;28] deydi". Maktab direktorining nutqidagi ibora esa o'z o'quvchisini odam o'rnida ko'rmaydigan , o'ta qo'pol, bemehr bir kimsa, qahri qattiq odamligidan darak beradi: "Jasadingni qara! Jasadingdan eshak hurkadi! O'l-e, shu kuninggae!"[3;54]. Aslida xalq "haybatidan ot hurkadi" deydi iborani uning tilidan "Jasadingdan eshak hurkadi" deb ishlatadi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchilarning o'z asarlarida sheva birliklari, ya'ni dialektlardan foydalanishdan maqsadi asarda o'sha muhit koloritini berish, bundan tashqari, asarga o'zgacha yondashish hamdir. O'zbek tili turkiy tillar ichida ko'p shevali til bo'lib, bu shevalar tabiiy, adabiy tilni boyitishga xizmat qilgan. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon"ni yozishda tarixiy shakllar bilan bir qatorda xalq tili, xususan Qo'qon guruh shevalaridan ham ma'lum maqsad uchun o'rinli foydalangan. Xususan, "Mehrobdan chayon" Qo'qon xonligi haqidaligiga e'tiborni qaratsak, bu holning tabiiyligiga ishonch hosil qilamiz. Bu asarlarni o'rganish esa o'zbek shevalarining o'rganilishiga debocha bo'lsa, ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doniyorov X. Qipchoq dialektining leksikasi. Toshkent, 1979
2. Doniyorov R. O'zbek tili ilmiy-texnikavoy terminalogiyasini tartibga solishning ayrim masalalari Toshkent,1994
3. Xadicha Fayziyeva "O'zbek dialektologiyasi". Termiz: "Kitob nashr" 2024-yil
4. Samixon Ashurboyev "O'zbek dialektologiyasi". Toshkent: "Nodirabegim" 2021-yil
5. Ibrohim Safarov MD Badiiy matnda dialektizmlarning stilistik xususiyatlari (Tog'ay Murod asarlari bo'yicha)